

**SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARI VA 504-MODDA
BO'YICHA MAXSUS SHAROITLARGA OID YO'RIQNOMA
NYU-YORK SHAHRIDAGI DAVLAT MAKTABLARI O'QUVCHILARI UCHUN
2026–2027-O'QUV YILI**

Barcha ota-onalar va davolovchi shifokorlar uchun:

Nyu-York shahar Ta'lim departamenti (NYC Department of Education, DOE) va Maktab sog'liqni saqlash boshqarmasi (OSH) maxsus sog'liqni saqlash ehtiyojlari bor o'quvchilarga tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun birgalikda ishlaydi. Farzandingiz IEP yoki 1973-yildagi Reabilitatsiya to'g'risidagi qonunning 504-moddasiga muvofiq sog'liqni saqlash xizmatlari yoki tibbiy maxsus sharoitlarga muhtoj bo'lsa, ushbu to'plamdagi tegishli shakl(lar)ni to'ldiring. OSH har o'quv yili uchun dori-darmonlarni yuborish va/yoki belgilangan muolajalar shakllarini yangilashni talab qiladi.

Farzandingiz uchun kerak bo'lsa, ushbu shakllar tibbiyot xodimlari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Iltimos, barcha shakllarning kerakli joylari imzolanganiga ishonch hosil qiling:

1. **Dori vositalarini qabul qilish shakllari (MAF)** – Ushbu shakl farzandingizning davolovchi shifokori tomonidan maktabda dori-darmon yoki muolaja olish uchun to'ldiriladi.
 - **Beshta alohida MAF mavjud: Astma; allergiya; diabet; tutqanoq; va umumiy.**
 - Iltimos, to'ldirilgan shakllarni maktab hamshirasi/maktab sog'liqni saqlash markaziga yuboring.
2. **Tibbiy tayinlangan davolash (dori-darmonsiz) shakli** – Ushbu shakl farzandingizning davolovchi shifokori tomonidan maktabda o'tkaziladigan zond orqali oziqlantirish, kateterizatsiya, suyuqlikni so'rib olish va shunga o'xshash xizmatlarni talab qilish uchun to'ldiriladi. Ushbu shakldan barcha malakali hamshiralik muolajalari uchun foydalanish mumkin.
 - Iltimos, to'ldirilgan shakllarni maktab hamshirasi/maktab sog'liqni saqlash markaziga yuboring.
3. **504-modda bo'yicha va/yoki Tibbiy maxsus sharoitlar uchun ariza** – Yangi yoki o'zgartirilgan sog'liqni saqlash xizmatlarini (MAF yoki Tibbiy tayinlangan muolaja shakli bilan birga) yoxud liftidan foydalanish, imtihonlarda yengilliklar berish va paraprofessional xizmatlar kabi maxsus sharoitlarni so'rash uchun ushbu shakllarni to'ldiring.
 - Ushbu shakllardan mehnat terapiyasi, jismoniy terapiya, nutq va til terapiyasi yoki psixologik maslahat kabi tegishli xizmatlarni so'rash uchun **FOYDALANMANG.**
 - To'ldirilishi kerak bo'lgan uchta shakl mavjud:
 - 504-modda bo'yicha maxsus sharoitlar uchun ota-onalar so'rovi (IEP'ga ega o'quvchilar uchun talab etilmaydi);
 - HIPAA'ga muvofiq sog'liqni saqlash ma'lumotlarini oshkor qilish uchun ruxsat; va
 - Bolaning davolovchi shifokori tomonidan to'ldiriladigan **Tibbiy maxsus sharoitlar uchun ariza shakli (MARF)**. Ushbu shakl maxsus sharoitga muhtoj **barcha** o'quvchilar uchun to'ldirilishi kerak.
 - Tegishli hollarda to'ldirilgan shakllarni maktabingizning 504 koordinatori yoki IEP jamoasiga topshiring

Ota-onalar:

- Farzandingizning davolovchi shifokoridan farzandingiz uchun zarur bo'lgan shakllarni (masalan, MAF va/yoki Tibbiy tayinlangan muolaja shakl) to'ldirishini so'rang.
- MAF va Muolaja shakllari har yili to'ldirilishi kerak **va yangi o'quv yili uchun 2026-yil 1-iyungacha maktab hamshirasi/maktab sog'liqni saqlash markaziga topshirilishi kerak. Ushbu sanadan keyin qabul qilingan arizalarni ko'rib chiqish kechikishi mumkin.**
- IEP'ga ega o'quvchilar uchun:
 - Tibbiy maxsus sharoitlar uchun ariza shakli, xizmat ko'rsatish tartibiga o'zgartirish kiritish zarurati yuzaga kelganda, to'ldirilishi kerak.
 - **IEP jamoasi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan shakllar farzandingizning IEP yig'ilishidan kamida bir oy oldin topshirilishi kerak.**
- Zaxira dori vositalari (Albuterol, Flovent va Epinefrin) faqat maktab hududida faqat OSH xodimlari tomonidan qo'llanilishi uchun mo'ljallangan va foydalanish uchun to'ldirilgan MAF talab etiladi. Maktab sayohati kuni va/yoki maktab homiyligidagi maktabdan keyingi dasturlarda farzandingiz bilan birga epinefrin, astma ingalyatori va boshqa tasdiqlangan o'zi qo'llaydigan dori-darmonlarini yuborishingiz kerak.
- **Farzandingiz ushbu xizmatlarni olishiga rozilik berib, har qanday MAF va Muolaja shakllarining orqa tomoniga imzo qo'yganingizga ishonch hosil qiling.**
- **MAF shaklining yuqori chap burchagiga yaqinda olingan kichik suratni yopishtiring.**

Agar biron bir savolingiz bo'lsa, iltimos, farzandingizning maktab hamshirasi, IEP jamoasi (agar mavjud bo'lsa) va/yoki maktabning 504 koordinatori bilan bog'laning.

Davolovchi shifokorlar: Sahifaning orqasiga qarang.

SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARI VA 504-MODDA
BO'YICHA MAXSUS SHAROITLARGA OID YO'RIQNOMA
NYU-YORK SHAHRIDAGI DAVLAT MAKTABLARI O'QUVCHILARI UCHUN
2026–2027-O'QUV YILI

Tibbiy maxsus sharoitlar uchun ariza shaklini to'ldirish bo'yicha davolovchi shifokorga ko'rsatmalar

Shakllarni to'ldirishda quyidagi ko'rsatmalarga rioya qiling:

- Bemoringiz bir nechta davolovchi shifokorlar tomonidan muolaja qilinishi mumkin. Shaklni to'ldirayotgan davolovchi shifokor arizada so'ralayotgan xizmatlarga sabab bo'lgan holatni davolayotgan shaxs bo'lishi lozim.
- Ushbu shakl o'quvchini davolagan hamda ariza uchun asos sifatida ko'rsatilgan tibbiy tashxislar bo'yicha klinik ma'lumotlarni taqdim eta oladigan, litsenziyaga ega davolovchi shifokor (MD, DO, NP, PA) tomonidan to'ldirilishi shart. Shakllarni ota-ona yoki vasiy to'ldirishi mumkin emas. Shakllarni rezident to'ldirishi mumkin emas.

Yordam ko'rsatish bo'yicha barcha so'rovlar tibbiy zaruratga asoslanadi. Javoblaringiz to'liq va aniq ekanligiga ishonch hosil qiling. **Tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha barcha arizalar Maktab sog'liqni saqlash boshqarmasining (OSH) tibbiy xodimlari tomonidan ko'rib chiqiladi va qo'shimcha ma'lumot zarur bo'lsa, ular siz bilan bog'lanadi.**

- Ta'lim departamentining aksariyat maktablarida hamshira mavjud. Shaxsiy hamshira biriktirish to'g'risidagi so'rovlar har bir holat bo'yicha alohida ko'rib chiqiladi.
- ushbu shakldagi barcha ma'lumotlarni aniq yozing yoki chop eting. **O'qib bo'lmaydigan, to'ldirilmagan, imzosiz yoki sanasi ko'rsatilmagan shakllar ko'rib chiqilmaydi va o'quvchining ota-onasi yoki vasiysiga qaytarib yuboriladi.**
- O'quvchining to'liq ism-sharifini va klinik ahamiyatga ega bo'lgan amaldagi tashxislarini taqdim eting.
- O'quvchiga dars vaqtida yoki transportda ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashxislar/belgilar, tibbiy holatlar va/yoki xulq-atvor muammolarining ta'sirini, jumladan, cheklovlar va/yoki zarur choralarni tavsiflab bering.
- So'ralgan sharoitlarga oid maxsus xizmatlar yoki yo'llanmalar bo'yicha barcha hujjatlar va tahlil natijalarini ilova qiling.
- **Faqat dars soatlarida yoki maktab homiyligida tashkillashtirilgan boshqa dastur va tadbirlar davomida zarur bo'ladigan xizmatlarni so'rang.** Uyda, darsdan oldin yoki keyin berilishi mumkin bo'lgan dori-darmonlarni so'ramang.
- Agar o'quvchiga dori-darmonlar qabul qilish yoki muolajalar o'tkazish zarur bo'lsa, barcha tegishli Dori vositalarini qabul qilish shakllarini (MAF) va/yoki Tibbiy tayinlangan muolaja uchun arizani to'ldirib topshiring. Ko'rsatmalar aniq va tushunarli yozilishi kerak. Bu maktab hamshirasiga mazkur vazifani tibbiy mas'uliyat bilan bajarish imkonini beradi.
- Noan'anaviy dori vositalari bo'yicha so'rovlar har bir holat alohida ko'rib chiqiladi.
- Ismingizni bosma harflar bilan aniq yozing hamda Nyu-York, Nyu-Jersi yoki Konnektikut shtatining amaldagi litsenziyasi va NPI raqamini kiriting.
- Tibbiy maxsus sharoitlar uchun ariza shaklida:
 - Arizaga qo'shimcha aniqlik kiritish maqsadida siz bilan bog'lanish uchun eng qulay kunlar va vaqtlarni yozing.
 - Taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlovchi bayonnomani imzolang.
- Zaxira epinefrin tibbiy xonada yoki maktabgacha tayyorlov guruhlari uchun umumiy joyda saqlanishi mumkin. O'quvchiga buyurilgan epinefrin ko'rsatmalarga muvofiq o'quvchi bilan birga olib yuriladi.

O'quvchining ko'nikma darajasi: O'quvchilar maktabda iloji boricha mustaqil bo'lishlari kerak. Davolovchi shifokorlar bolaning hamshiraga bog'liqligini, nazorat ostida bo'lishi kerakligini yoki dori-darmonlarni qabul qilish yoxud muolajalarni mustaqil bajara olishini aniqlashlari zarur.

- **Hamshiraga bog'liq:** Hamshira qabul qildirishi shart. Dori-darmonlar odatda tibbiy xonadagi qulflangan shkafda saqlanadi.
- **Nazorat ostida:** Kattalar nazorati ostida mustaqil qabul qiladi. O'quvchi o'z dori-darmonini taniy olishi, to'g'ri dozani va qachon qabul qilishni bilishi, dorining maqsadini tushunishi hamda uni qabul qilmasa nima sodir bo'lishini tasvirlab bera olishi lozim.
- **Mustaqil:** O'zi bilan olib yurishi/mustaqil qabul qilishi mumkin. Mustaqil bo'lgan o'quvchilar uchun, o'quvchining maktabda hamda maktab tomonidan homiylik qilinadigan boshqa dastur va tadbirlarda, jumladan, maktab sayohatlarida dori vositasini o'zi qabul qila olishini tasdiqlovchi bayonnomaga ism-sharifingiz bosh harflarini yozing. **O'quvchilarga nazorat ostidagi moddalarni olib yurishga hech qachon ruxsat etilmaydi.**
- ***Agar hech qanday ko'nikma darajasi tanlanmasa, o'quvchining davolovchi shifokori tomonidan qo'shimcha tavsiya berilmaguncha, OSH xodimlari standart bo'yicha o'quvchini hamshiraga bog'liq deb belgilaydi.***

Hamkorligingiz uchun tashakkur.